

Amaliyot, asosan, talabalarda bilim va malakalarni mustahkamlash, ularni ilmiy yo'nalishga ixtisoslashtirish hamda ilmiy ko'nikma vaqobiliyatni shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi. Amaliyot jarayo-nida talabalarda bitiruv malakaviy ish yozish texnikasini o'rganish, kitob bilan ishlash, manbalarni tahlil qilish, mustaqil ishlash kabi ko'nikmalar shakllantiriladi.

Urganch davlat universiteti talabalarning nazariy bilimlari va amaliyoti o'rtasida ko'priklar yaratish maqsadida davlat va xususiy sektor kompaniyalarining barcha turlari bilan hamkorlik qiladi. Hamkorlik tashkilotlari o'quv yo'nalishlariga qarab farq qilishi mumkin. Amaliyotga oid barcha shartnomalar Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda belgilangan vazifalarning to'liq bajarilishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Shartnomalar tuzilgan davlat muassasalari hamda tadbirkorlik sub'ektlari ro'yxati ilova qilingan.



